

**TO'LIQSIZ OILALARDAGI MUAMMOSI MAVJUD TALABALARNI IJTIMOY  
FAOLLIGINI TA'MINLASH****Musurmanova Shaxlo Ilhomovna****Qori Niyoziy nomidagi TPMI doktoranti.****Email: shaxlomusirmonova@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15602789>**

**Abstract.** Mazkur maqolada to'liqsiz oilalardagi muammosi mavjud talabalarni ijtimoiy faolligini ta'minlash mazmuni yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** mahalla, jamiyat, to'liq bo'lmagan oila, qadriyatlar, ota-ona, talaba, oila, ajrashgan oila, tadbirkorlik, aqlli ayol, murakkab, funktsional, turmush o'rtog'i, nikoh.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda aholini, shu jumladan, to'liqsiz, notinch, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarda ijtimoiy-ma'naviy himoyaga muhtoj yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, nogironligi bo'lgan bolalarni ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Ushbu masalalarga oid huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmoni, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Oila, bolalar va yoshlar"ga bag'ishlangan XIV bobining 76-80-moddalarida to'liq o'z aksini topgan.

Mahallalarda va kam ta'minlangan oilalarda muammolarni aniqlashda hamda fuqarolar yig'inlari tomonidan olib chiqilayotgan masalalarni hal etishda, ularni bevosita hokimga olib chiqishda, shuningdek, yuqori turuvchi idoralarga haqiqiy holatga doir ma'lumotlarni taqdim etishda tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari boshliqlarining hokim o'rinbosarlari sifatida mahalla manfaatini emas, balki hokimlik manfaati nuqtai-nazaridan yondashayotganliklari.

Bunda ularni lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish bevosita vazirlik tomonidan emas, balki bevosita tuman (shahar) hokimi tomonidan amalga oshirilishi ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

1. Sektorlar rahbarlari va tuman (shahar) hokimlarining boshqa o'rinbosarlari mutasaddilik qiladigan davlat organlarining faoliyati ustidan fuqarolar yig'inlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdan, uning natijalarini hokimlik yig'ilishlariga olib chiqishdan tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari boshliqlarining manfaatdor emasliklari.

2. Viloyat hokimlarining o'rinbosarlari – mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmalari boshliqlarining mahallalarda va oilalardagi mavjud muammolarning barchasini viloyat hokimligi yig'ilishlariga o'z vaqtida kiritmayotganliklariga viloyat hokimining boshqa yo'nalishlar bo'yicha o'rinbosarlari va tuman (shahar) hokimlari bilan o'zaro ziddiyatli holatlarga borib qolmaslik holatining ta'sir ko'rsatayotganligi.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga berilgan kollegial organlar (komissiyalar, kengashlar, ishchi guruhlar va boshqalar)ni tashkil qilishning aniq huquqiy asoslari yaratilmaganligi, ularning vakolat chegaralari va faoliyat yuritish davri belgilanmagan.

Fuqarolar yig'inlarida 10 ta kollegial tuzilma (shu jumladan, 1 ta kengash, 5 ta komissiya va 4 ta jamoatchilik tuzilmasi) jamoatchilik asosida faoliyat yuritmoqda. Bular:

1. Fuqarolar yig'ini kengashi.

2. Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, Xotin-qizlar bilan ishlash, Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish, Taftish komissiyalari (jami 5 ta komissiya).

3. "Ota-onalar universiteti", "Keksalar maslahati" guruhi, "Ayollar maslahat kengashi", "Fidokor yoshlar" patrul guruhi (jami 4 ta jamoatchilik tuzilmasi).

Yuqoridagi 10 ta kollegial tuzilmaning barchasiga oid nizomlar Hukumat qarori bilan tasdiqlangan va ular faoliyatining huquqiy asoslari yaratilgan.

Barcha fuqarolar yig'inlarida "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyiliga asoslangan tizim quyidagi vazifalar taqsimotiga muvofiq amaliyotga joriy etiladi:

Fuqarolar yig'ini raisi:

Milliy va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash; aholining huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini oshirish;

to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni ixcham va kamxarj qilib o'tkazish;

murojaatlar bilan ishlash, manzilli uyma-uy yurish va aholi muammolarini aniqlash;

nuroniylarning bilim va boy hayotiy tajribasidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik ruhini mustahkamlashda samarali foydalanish;

oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga keksa avlod vakillarini jalb qilish;

kam ta'minlangan oilalarni ehtiyojmandlik darajasidan chiqarish; keksalar uchun nazarda tutilgan pensiyalar va imtiyozlar bo'yicha qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish;

keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha maslahatchi, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi, "Keksalar maslahati" guruhining faoliyatini samarali tashkil etishga mas'ul bo'ladi.

Fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari:

jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlash;

Qonun ustuvorligini, jamoat tartibi va xavfsizlikni ta'minlash hamda huquqbuzarliklarning oldini olish masalalarida ichki ishlar organlari, boshqa davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni mustahkamlash;

huquqbuzarlarga tegishli jazo choralarini ko'rish;

profilaktik hisobda turadigan shaxslar bilan ishlash;

sanitariya va obodonlashtirish ishlarida qonunchilikni ta'minlash; aholi, ayniqsa, xotin-qizlar, voyaga etmaganlar va yoshlar o'rtasida profilaktik tadbirlar o'tkazish;

to'y va boshqa oilaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish;

manzilli uyma-uy yurish va aholi muammolarini aniqlash; fuqarolar yig'ini raisining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi, "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhining faoliyatini tashkil qilish va muvofiqlashtirishga mas'ul bo'ladi.

Fuqarolar yig'ini raisining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosari, xotin-qizlar faoli va "Oqila ayollar" harakati:

Oila institutini mustahkamlash, notinch va muammoli oilalar bilan manzilli ishlash;

xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish;

xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, yordamga muhtoj xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish;

xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka jalb etish;

oilalarning salomatligini mustahkamlash, odamlar ongiga sog'lom turmush tarzini singdirish;

xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, huquqbuzarlikka moyil bo'lgan hamda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlar bilan ishlash;

xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiya, "Ota-onalar universiteti" jamoatchilik tuzilmasi, "Buvijonlar maktabi" jamoatchilik kengashi faoliyatini samarali tashkil etishga mas'ul bo'ladi.

Fuqarolar yig'ini raisining obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo'yicha o'rinbosari:

atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati va uni obodonlashtirish hamda ko'kalamzorlashtirish;

tadbirkorlik faoliyatini, shu jumladan, kichik biznes, xususiy va oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilik, chorvachilik, asalarichilik, baliqchilik, parrandachilik, dehqon xo'jaligi hamda shaxsiy tomorqa xo'jaligini tashkil etish va rivojlantirish;

manzilli uyma-uy yurish va aholi muammolarini aniqlash;

aholi tomorqalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

kam ta'minlangan oilalarni ehtiyojmandlik darajasidan chiqarish;

tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari, shu jumladan, oilaviy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan kreditlar olinishiga ko'maklashish;

yolg'iz keksalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash;

hududda qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jamoatchilik nazorati hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiyalari faoliyatini samarali tashkil etishga mas'ul bo'ladi.

Fuqarolar yig'ini raisi va uning o'rinbosarlari vazifalar taqsimotiga muvofiq o'tkazilishi mo'ljallangan tadbirlarning belgilangan vaqt va muddatlarda tizimli hamda manzilli amalga oshirilishiga mas'ul hisoblanadi.

Endilikda aholi muammolarini o'rganish, tahlil qilish va hal etish hamda murojaatlarni davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ko'rib chiqishning bir-biri bilan uzviy bog'langan to'rt pog'onali "mahalla – tuman – viloyat – respublika" tizimi joriy etiladi.

Mahalla raisi tomonidan aholi e'tirozlariga eng ko'p sabab bo'layotgan muammolarni aniqlash maqsadida muntazam ravishda muhokamalar o'tkaziladi. Har oyda mahalla kengashida tegishli davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining amalga oshirilgan ishlar bo'yicha axboroti eshitiladi hamda muammolarning bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatiladi. Mahalla raisi har chorakda davlat organlari va tashkilotlari tomonidan mahallada amalga oshirilgan ishlar natijalari hamda bartaraf etilmagan tizimli muammolar bo'yicha tegishli tuman (shahar) xalq qabulxonasiga ma'lumotlar kiritib boradi.

Madaniy xilma-xillik va individual farqlarni hisobga olgan holda, ushbu yordam usullari va shakllarini jalb qilingan bolalar va oilalarning o'ziga xos ehtiyojlari va sharoitlariga moslashtirish muhimdir. Bundan tashqari, ushbu dasturlarni doimiy ravishda baholash va takomillashtirish

yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi va ularning kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun ijobiy natijalarga erishishda samaradorligini ta'minlaydi.

Kam ta'minlangan oilalar farzandlarining ehtiyojlari xilma-xil va murakkab ekanligini tan olish muhimdir. Ularning shaxsiy sharoitlariga moslashtirilgan va yaxlit yondashuvlar ularning farovonligi va samaradorligi uchun juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda turli toifadagi oilalarning farzandlari to'liq davlat himoyasidadir. Shuning uchun ijtimoiy-ma'naviy himoyaga muhtoj bolalar guruhining son jihatdan ko'payishining oldini olish, uni bartaraf etishda hamkorlik va tarbiya masalasiga bevosita hamda bilvosita mas'ul shaxslarning ijtimoiy-ma'naviy himoya siyosatiga oid bilimga ega bo'lishi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy sohadagi kontseptual g'oyalarga amalga oshirishda avvalo mahallalar tizimidagi mahalla fuqarolar yig'ini raisi, profilaktika (katta) inspektori, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar etakchisi, shuningdek "Oqila ayollar" harakati a'zolari va boshqa jamoatchi mutasaddilari mas'uldir.

### **References:**

#### **Используемая литература:**

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019 yil 2 apreldagi "Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5700-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son Farmoni.
3. Мусурманова, О., Шаамирова, Ю. К., & Салаева, М. С. (2023). Маҳаллаларда тўлиқсиз оилалардаги муаммоси мавжуд фарзандлар билан ишлаш механизмлари Услубий қўлланма.
4. Narbaeva, T., Musurmanova, A., & Ismailova, Z. (2023). Priority areas of spiritual, moral and physical education of youth in the family. Science and innovation, 2(B1), 49-59.
5. Мусурманова, Ш. И. (2023). МАҲАЛЛА ФУҚАРО ЙИҒИНИ ТИЗИМИДАГИ МУТАСАДДИЛАРНИНГ НОТЎЛИҚ ОИЛА БИЛАН ФАРЗАНД ТАРБИЯСИДАГИ ЎЗАРО ҲАМКОРЛИГИ.
6. Ilkhomovna, M. S. (2023). ISSUES IN THE DEVELOPMENT OF SOCIO-INTELLECTUAL COMPETENCE OF ADULT STUDENT-YOUTH IN INCOMPLETE FAMILIES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS.
7. Musurmonova, S. (2022). Significance and role of pedagogical creativity. European Scholar Journal, (3), 11.